

**SAMAD BEHRANGIYNING (به دنبال فلک) BE DONBÂL-E FÂLÂK
HIKOYASIDA FE'LLARNING BERILISHI**

Salayboyeva Sevinch Valijon qizi

O'zDJTU talabasi

Telefon: (77)501-05-47

sevasalayboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Asqarova D.S

O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fors tili morfologiyasining negizi hisoblangan fe'l turkumi, o'tgan zamon asosi paradigmasi hamda zamon kategoriyalarining ifodalanish xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda taniqli eroniy adib Samad Behrangining "Falakning izidan" hikoyasi asosiy tahlil obyekti sifatida olingan. Maqolada nazariy grammatik qoidalarining badiiy matndagi amaliy in'ikosi, xususan, sodda va qo'shma fe'llarning funksional-semantik xususiyatlari, shuningdek, o'tgan zamon davom fe'li kabi o'ziga xos analitik konstruksiyalarning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Asarning falsafiy mazmuni va undagi harakat dinamikasi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik kesishmasida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar. *fors tili, morfologiya, fe'l asosi, o'tgan zamon asosi, hozirgi zamon asosi, qo'shma fe'llar, prekisli fe'llar, badiiy tahlil, zamon kategoriyasi.*

KIRISH

Tilshunoslikning eng muhim obyektlaridan biri hisoblangan fe'l turkumi, fors tili grammatik qurilishining ham asosi va lisoniy o'zagini tashkil etadi. Hind-yevropa tillari oilasining eroniy guruhiga mansub bo'lgan fors tilida fe'l tizimi o'zining qadimiy flektiv ya'ni ichki o'zgarish xususiyatlarini saqlab qolgan holda, taraqqiyot davomida kuchli analitizm ya'ni yordamchi so'zlar orqali ifodalanish tomon rivojlanib bormoqda. Maqola doirasida fors grammatikasida fe'llarning turlari: sodda, qo'shma va prefiksli fe'llar ilmiy tahlil qilinadi.

Fors tilidagi fe'llar lug'atlarda har doim masdar, ya'ni noaniq shaklda beriladi. Fe'lning bu shakli shaxs, son va zamonni anglatmagani uchun ham fe'lning noaniq shakli deb nomlanadi. Masdar fe'lning otga yaqin shakli bo'lib, ham fe'llik, ham otlik belgilarga ega. Masdarning fe'llik belgisi harakat, holatni, o'timli o'timsizlik holatlarini saqlashi, boshqa so'zlarni boshqarishi bo'lsa, uning otlik belgilari esa otlar singari turlanishi va gapda ot bajargan sintaktik vazifalarni bajarishidir⁴³. Huddi masdar kabi bir so'zdan tashkil topgan so'zlar sodda fe'llar deyiladi: شنیدن (eshitmoq).

⁴³ Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 98.

Prefiks (old qo'shimcha) va sodda fe'l yordami bilan yasalgan fe'llar prefiksli fe'llar deyiladi: رد دروا (chiqarmoq)⁴⁴.

Ot (yoki fe'ldan boshqa so'z turkumlari) va ko'makchi fe'l yordami bilan yasalgan fe'llar qo'shma fe'llar deyiladi: قسم خوردن (qasam ichmoq).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fors tilida har qanday fe'l paradigmasi ikki fundamental asosga tayanadi: بن ماضی (o'tgan zamon asosi), بن مضارع (hozirgi zamon asosi). O'tgan zamon asosi sodda fe'ldan (an) qo'shimchasini olib tashlash va shaxs-son qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi, bunda fe'l ish-harakatining avval sodir bo'lib o'tib ketganligini bildiradi: من دیدم (men ko'rdim).

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlarni, ya'ni fors tili fe'llarining ikki asosli paradigmasi va qo'shma fe'llarning funksional imkoniyatlarini amaliyotda, xususan, badiiy adabiyotda qanday namoyon bo'lishini Samad Behrangining "به دنبال فلک" (Falakning izidan) hikoyasi misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur asar tilining soddaligi va xalqchil iboralarga boyligi bilan fe'l tizimini tahlil qilish uchun boy material beradi. Asarda qahramonning harakatlarini ifodalashda raftan (bormoq), goftan (aytmoq) kabi sodda fe'llar bilan bir qatorda, so'al kardan (savol bermoq), javob dâdan (javob bermoq) kabi qo'shma fe'llar faol qo'llanilgan. Bu hozirgi zamon fors tilidagi nominal-verbal birikmalarning jonli nutqdagi o'rnini ko'rsatadi. O'tgan zamon shakllari orqali hikoyaning dinamikasi (masalan: raft, rasid, porsid) ta'minlangan bo'lsa, dialoglarda hozirgi zamon asosi yordamida yasalgan buyruq va shart mayllari orqali personajlar xarakteri ochib berilgan. Bu esa tilning grammatik qoidalari badiiy tasvirning ajralmas bo'lagi ekanligini isbotlaydi⁴⁵.

باز رفت و رفت تا رسید به شهری که پادشاه آنجا در جنگ شکست خورده بود و داشت فرار می کرد.⁴⁶

U yana yurdi va yurdi va nihoyat, podshohi urishda mag'lub bo'lgan va qochib ketayotgan bir shaharga yetib keldi.

Bu gapda رفت (bordi\yurdi) va رسید (yetib keldi) fe'llari qatnashgan. Bular sodda fe'llar bo'lib o'tgan zamon asosi orqali hosil qilingan. Hikoyada voqealar rivojini ya'ni asosiy harakatlar zanjirini ifodalash uchun xizmat qilmoqda. ushbu fe'l qo'shma fe'l bo'lib mag'lub bo'lgan edi ya'ni bosh qahramon shaharga kelishidan oldin ish-harakati yakunlanganini bildiradi. داشت فرار می کرد o'tgan zamon davom fe'li *dosht (yordamchi fe'l) +mi (prefiks)+rishe (asos)* harakatning aynan o'sha paytda, qahramon shaharga kirib kelganida bo'lganini bildiradi.

Samad Behrangi ushbu jumlada o'tgan zamonning uch xil ko'rinishidan foydalangan holda, voqealarning vaqtlar aro bog'liqligini ya'ni oldin sodir bo'lgan harakat, asosiy

⁴⁴ Maxamadaliyev X, Alimova X, Agzamova G., Fors tili. – Toshkent, 2018. – B. 10.

⁴⁵ Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – P. 21.

⁴⁶ Behrangi Samad. Falakning izidan, "Mittivoy va laqqa baliq" (to'plam) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 48.

harakat va davom etayotgan jarayonni aniq tasvirlab bergan. “Falakning izidan” asari nafaqat lisoniy, balki chuqur falsafiy mazmunga ham ega. Hikoya markazida 'baxt' va 'imkoniyat' tushunchalari yotadi. Muallif inson o‘z baxtini tashqaridan yoki mavhum “falak”dan qidirishi emas, balki yon-atrofidagi imkoniyatlarni anglay olishi lozimligini uqtiradi. Hikoya ohirida qahramon o‘z noshudligi va dangasaligi sabab ba’rini yo‘qotadi, Samad Behrang bu asar orqali inson ham aqlini ham his tuyg‘ularini inobatga olgan holda hayot kechirishi kerakligini aytadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fors tili fe’l tizimi o‘zining mantiqiy izchilligi va boy strukturaviy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Samad Behrangining به دنبال فلک hikoyasi misolida ko‘rinadiki, muallif fe’llarning zamon va mayl kategoriyalaridan mahorat bilan foydalanib, asar dinamikasini ta’minlagan.

Asarning g‘oyaviy yakuni va qahramonning fojiasi bevosita uning passivligi — berilgan imkoniyatlarni ya’ni fe’liy harakatlarni amalga oshirmaganligi bilan bog‘liq. Lisoniy tahlil shuni tasdiqlaydiki, fors tili grammatikasidagi sodda fe’llarning o‘rnini qo‘shma fe’llar egallab borishi tilning zamonaviy taraqqiyot tamoyillaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, Samad Behrangij ijodi fors tili morfologiyasini, xususan, fe’l turkumini jonli nutq va badiiy tasvir uyg‘unligida o‘rganish uchun eng ishonchli manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Asarda 42 ta sodda , 58 ta qo‘shma va 12 ta prefiksli fe’llar qatnashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: Sharq, 2007. – 448 b.
2. Behrang Samad. Falakning izidan, “Mittivoy va laqqa baliq” (to‘plam) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 156 b.
3. Maxamadaliyev X, Alimova X, Agzamova G., Fors tili. – Toshkent, 2018. – 467 b.
4. Talatoff K. Persian language, literature and culture. – New York: Routledge, 2015. – 45 p.
5. ۱۳۸۲ بهرنگی، صمد. مجموعه قصه‌های صمد بهرنگی. – تهران: انتشارات جامه دران، ۱۳۸۲. S. Majmue-ye ghesse-ye Samad Behrangiy. – Tehron: Jame-daran, 2003. – 216 b.